

**BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING ONA TILI VA O‘QISH
SAVODXONLIGI DARSLARIDA TEZ AYTISHLAR ORQALI KREATIVLIKNI
OSHIRISH**

Ziyotova Sabrina Bobir qizi
Termiz davlat pedagogika instituti 1-kurs talabasi

Shabbazova D. R.
Ilmiy rahbar, p.f.f.d (PhD)

Annotatsiya:

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida tez aytishlar orqali kreativlikni oshirish yo‘llari va kreativlikni rivojlantirish haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar : boshlang‘ich sinf, ona tili, kreativlik, tez aytish, o‘quvchi, nutq, ona tili va o‘qish savodxonligi, rivojlantirish

Bugungi kunda yurtimizda asosiy e‘tibor o‘quvchi yoshlarning ta‘lim-tarbiyasiga, ularni mustaqil tarzda fikrlaydigan, yuksak tafakkur egasi, vataniga kerakli inson qilib tarbiyalash hamda madaniyatli, ma‘rifatli insonlardan biri bo‘lib kamol topishlariga qaratilgan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek, „Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma‘naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuchi va imkoniyatlarini safarbar etamiz“.

Shu jumladan, „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi“da ta‘lim sohasini tubdan isloh qilish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma‘naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratish asosiy maqsad qilib olingan. O‘quvchilarning, eng avvalo, savodxonligini oshirishda to‘g‘ri o‘qish, so‘z boyligini oshirish, keng fikrlashga o‘rgatish, nutqini, ongini oshirish kabi bir qator xususiyatlarni o‘rganishda ona tili va o‘qish savodxonligini to‘g‘ri tashkil eta bilish lozim. Fikrini, nutqini hamda kreativligini oshirish, kelajak avlodlarga sog‘lom fikrli bolani tarbiyalash ona tili va o‘qish savodxonligining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Ayniqsa, bola fikrlashining kengayishida sodda so‘zlardan murakkab so‘zlarga o‘tib borishi yosh xususiyatlariga moslab davlat ta‘lim standartlari asosida joylashganligi o‘ta muhimdir.

Eng avvalo kreativlik so‘ziga to‘xtaladigan bo‘lsak, „kreativlik – bu qaysidir ma‘noda yangi va foydali biror bir narsaning yaratilishiga hissa qo‘shadigan fonemen. Boshqacha qilib aytganda, yangi mavhum biror narsa (asar, musiqa, she‘r) yoki jismoniy biror bir kashfiyot (mashina, qurilma) kabilar yaratilishi uchun eng kerakli vosita bu kreativlikdir.

Tez aytishlar ma'lum so'zni, so'z birikmasini yoki tovushni to'g'ri talaffuz qilishga, uni boshqa tovushlardan farqlashga o'rgatadigan, xotirani mustahkamlaydigan va nutqni o'stiradigan, o'qish sur'atini oshiradigan janr hisoblanadi. Shu sababli 1-sinf darsliklarida



ko'pgina tez aytishlar keltirilgan. Masalan, „ Botir botmas botqoqqa”, „ Qobil qozonda qovurdoq qovurdi”, „ Bahodir bayroqni Botirga berdimi, Botir Bahodirga bayroqni berdimi?”, „Olim oldidagi oltila olmani oldi” va boshqalar.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, boshlang'ich sinf darsliklariga o'quvchilar yoshiga mos, mavzular bo'yicha tanlab olingan, ko'proq tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan tez aytishlar tanlab kiritish maqsadga muvofiqdir.



Tez aytish va topishmoqlarni o'rganish boshlang'ich sinflarda dastlab har bir darsda amalga oshirib boriladi. Alohida dars sifatida o'rganishda esa o'qituvchilar turli usullardan foydalanishlari ham mumkin.

Tez aytishlardan samarali foydalanish bolalarning nutqini ravon qilishda hamda ularning kreativligini oshirishda katta ahamiyat kasb etadi. Maktab yoshidagi va boshlang'ich sinfdagi tahsil olayotgan o'quvchilarning nutqini ravon qilish, dunyoqarashi va kreativligini oshirish juda muhimdir, chunki bolalarning hozirgi zamon talabi asosida jamiyatimiz ishlarida faolligini ta'minlashda ular nutqining ravonligi, kreativlik darajasi katta ahamiyatga ega. Nutq — insonlararo aloqa vositasi bo'lganligi uchun ham har bir yosh avlodni nutqiy ko'nikmalari hamda kreativligini oshirish davr talabi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1., „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”.
2. Ona tili va o'qish metodikasi „NOSHIR ” nashriyoti, 2017-yil.
- 3., „Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi ” Qarshi–2018.
4. Ziyaqulova Maftuna Shuhrat qizi and Feruza Hayitova Abdullayevna, “THE ROLE OF PICTURES IN THE FORMATION OF STUDENTS 'CREATIVE ABILITY IN LITERACY LESSONS”, IEJRD - International Multidisciplinary Journal, vol. 6, no. 4, p. 3, Jul. 2021.
5. Ziyaqulova Maftuna Shuhrat qizi “ Enhancing creativity in the process of developing studentso speech “ The American Journal of Social Science and education Innovations (ISSN – 2689-100x) Published Published: June 28, 2021 | <https://doi.org/10.37547/tajssei/Volume03Issye06-24> IMPACT FACTOR 2021: 11. 857 OCLC – 1121105668 Pages: 140-143 Америка
6. Ziyaqulova Maftuna Shuhrat qizi, Rakhmatova Hamida Ismatillo qizi, “ Increasing Creativity by using Interactive methods in literacy teaching process” Analytical journal of education and development Science Box In Vol.1(2021): Analytical journal of education and development 52-54-betlar Тошкент
7. BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING AQLIY SALOHIYATINI HAMDA KREATIVLIGINI OSHIRISHDA MENTAL ARIFMETIKANING O'RNI M Ziyaqulova, S Ashurova, N Toshpulatova - Development and innovations in science, 2023
8. The importance of riddles in the development of students creativity in the learning process ZMS Qizi - Asian Journal Of Multidimensional Research, 2021
9. BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING LUGATLAR BILAN ISHLASH JARAYONIDA KREATIVLIGINI OSHIRISH MSQ Ziyaqulova, HIQ Raxmatova - ... : Innovative, educational, natural and social sciences, 2021
10. Оллокулова, Ф. (2022). Социально-педагогическое значение формирования научно-исследовательской деятельности учеников начальных классов на основе концентризма.

Общество и инновации, 3(10/S), 128–134. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol3-iss10/S-pp128-134>

11. Toshpulatova Niyokhon Shavkatjonovna// A Creative Approach to Teaching Geometry in the Primary Grades//International Journal on Orange Technologies//48-53-bet

12. kizi, Z. M. S. . (2023). Technologies of Creative Approach to the Development of Speaking Competences of Primary Class Students. Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education, 2(4), 189–192. Retrieved from <http://univerpubl.com/index.php/semantic/article/view/1138>

13. Ziyaqulova, M., Ashurova, S., & Toshpulatova, N. (2023). BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARINING AQLIY SALOHİYATINI HAMDA KREATIVLIGINI OSHIRISHDA MENTAL ARIFMETIKANING O'RNI. Development and innovations in science, 2(3), 92-98.

14. Qizi, Z. M. S. (2021). Enhancing Creativity In The Process Of Developing Students' Speech. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(06), 140-143.

15. Qizi, Z. M. S. (2021). The importance of riddles in the development of students creativity in the learning process. Asian Journal Of Multidimensional Research, 10(6), 182-185.

16. Ziyaqulova, M. S. Q., & Xayitova, F. A. (2021). SAVOD O'RGATISH DARSLARIDA O'QUVCHILARNING KREATIV QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISHDA RASMLARNING O'RNI. Academic research in educational sciences, 2(7), 7-12.

17. Ziyaqulova, M. S. Q., & Raxmatova, H. I. Q. (2021). BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARINING LUGATLAR BILAN ISHLASH JARAYONIDA KREATIVLIGINI OSHIRISH. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(4), 1503-1509.